

### **Jizzax viloyati Yangiobod tumanida tashabbusli budjetlashtirishning amalga oshirish mexanizimi**

***Raxmiddinov Bobomurod Husniddin o'gli***

***Qo'chqorov Abbos Abdualim o'g'li***

***G'oyibnazarova Mashhura Sodiqovna***

***Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti***

***Moliya fakulteti 88-guruh talabalari***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jizzax viloyati Yangiobod tumani tashabbusli byudjetlashtirish loyihalari doirasida ayrim tahliliy masalalar bayon qilinadi. Jumladan, tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar, amalga oshirilgan loyihalar, fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'lari shakillanish manbalari va amalga oshirilgan loyihalar tahlilini ko'rib chiqdik.

**Kalit so'zlar:** Tashabbusli byudjetlashtirish, taklif bildirish, mablag' ajratish, modernizatsiya, g'olib loyixasini aniqlash, ovoz berish, pudratchini tanlash, shartnoma tuzish, tuman byudjeti, hisobot davri, mablag'.

So'nggi yillarda mamlakatimizda byudjet ma'lumotlarining ochiqligi va shaffofligini yanada oshirish, byudjet mablag'larining shakllanishi va sarflanishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Biz Jizzax viloyati Yangiobod tumanida 2021-2023-yillarda tashabbusli budjet loyihalari soni va qiymati ko'rib chiqib tahlil qildik. Tahlillar davomida aniq boldiki 2021-yilda tashabbusli budjetlashtirish uchun 1617000 ming so'm, bu mablag' 2022-yilda 3954681 ming so'mni, 2023-yilda esa 7168592.1 ming so'mni tashkil qilgan.

#### **1-jadval**

#### **Jizzax viloyati Yangiobod tumani tashabbusli budjetlashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lar miqdori (ming so'mda)**

<b>T/r</b>	<b>Ko‘rsatkich nomi</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>
1.	Yil boshiga qoldiq	0	214363.6	147840.0
2.	Hisobot davrida “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga o‘tkazilgan mablag‘lar	1617000.0	3954681.0	7168592.1
3.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan	1500000.0	4021204.6	7075000.0
3.1.	Bajarilgan ishlar uchun xisobvaraqlardan moliyalashtirilgan mablag‘	1402636.4	2119619.4	4361924.9
3.2.	<i>Hisobvaraqlardagi qoldiq</i>	0.0	1901585.2	2713075.1
4.	“Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da qoldiq mablag‘	117000	147840.0	241432.1

Yuqorida keltirilgan jadval Jizzax viloyati Yangiobod tumani uchun tashabbusli byudjetlashtirish maqsadida jamoatchilik fikri asosida shakillangan loyihalarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘lar miqdorining so‘nggi uch yil davomida o‘zgarishi dinamikasini aks ettiradi. Jadvalda ko‘rishimiz mumkinki, yillar davomida tashabbusli budgetlashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘larning umumiy miqdori yillar davomida sezilarli darajada ortib borgan. Misol uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar 2021-yil yakunlari bo‘yicha 1 500 000 000 so‘mni tashkil etgan, 2022-yil davomida bu ko‘rsatgich deyarli 2.6 barobarga ortib 4 021 204 600 so‘mni tashkil qilgan bo‘sса, 2023-yilning mos davriga kelib jamoatchilik fikri asosida shakillangan mablag‘larni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar o‘tgan moliya yiliga nisbatan qariyb 56.8% ga ortib 7 075 000 000 so‘mga yetgan.

Tashabbusli byudjetlashtirish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar tuman aholisi tomonidan ilgari surilgan va eng ko‘p ovoz to’plash natijasida g’olib deb topilgan turli darajadagi ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni moliyalashtirish maqsadida sarflangan. Quyidagi jadvalda o‘tgan uch yil mobaynida Jizzax viloyati Yangiobod tumanida tashabbusli budgetlashtirish moliyalashtirilgan

## ***Modern education and development***

tadbirlar, ularning umumiy soni va sarflangan mablag'larning umumiy qiymatini yillar kesimida ko'rishimiz mumkin.

Biz endi Jizzax viloyati Yangiobod tumanida 2021-2023-yillarda tashabbusli budgetlashtirishning takliflar soni hamda sarflangan mablag'larni ko'rib chiqib tahlil qildik. Tahlillar natijasida 2021-yilda jami takliflar soni 17 tani, sarflangan mablag'lar esa 1402636.4 ming so'mni, bu ko'rsatkich 2022-yilda takliflar soni 4 tani, ajratilgan mablag'lar esa 2119619.4 ming so'mni, 2023-yilda takliflar soni 7 tani, sarflangan mablag'lar esa 4361924.9 ming so'mni tashkil etgani tahlilar natijasida ko'rib chiqdik.

### **2-jadval**

#### **Jizzax viloyati Yangiobod tumani tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan tadbirlar**

T/ r	Tadbirlar nomi	Moliyalashtirilgan takliflar soni			Sarflangan mablag' (million so'mda)		
		2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil
	<b>Jami</b>	<b>17</b>	<b>4</b>	<b>7</b>	<b>1402.636</b>	<b>2119.619</b>	<b>4361.925</b>
1.	Hududiy ichki yo'llar	<b>9</b>	<b>4</b>	<b>1</b>	<b>770.312</b>	<b>2119.619</b>	<b>1129.745</b>
2.	Ummumta'lim maktabalarini ta'mirlash va jihozlash	<b>3</b>	-	<b>3</b>	<b>165.579</b>	-	<b>2126.745</b>
3.	Maktabgacha ta'lim muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	-	-		-	-	-
4.	Sog'liqni saqlash muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	-	-	-	-	-	-
5.	Boshqa ijtimoiy soha muassasalarini ta'mirlash va jihozlash	-	-	<b>1</b>	-	-	<b>749.547</b>
6.	Ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash	<b>4</b>	-	-	<b>413.745</b>	-	-
7.	Ko'cha chiroqlarini o'rnatish tadbirlari	<b>1</b>	-	-	<b>53.0</b>	-	-
8.	Hududlarni tartibga keltirish (obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish)	-	-	-	-	-	-
9.	Boshqa tadbirlar	-	-	<b>2</b>	-	-	<b>356.358</b>

## ***Modern education and development***

---

Ushbu jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, 2022-yilda moliyalashtirilgan loyihalarning umumiy soni 2021-yilga nisbatan 2.25 marta ortiq bo'lsa, ularga sarflangan mablag'larning umumiy hajmi 2.75 barobardan ortiq. Shuningdek, o'tgan yillar davomida amalgam oshirilgan tadbirlar soni va qiymati Yangiobod tumanida hududiy ichki yo'llarni qurish, ta'mirlash va qayta ta'mirlash hamda umumta'lim maktablarini ta'mirlash va jihozlash bilan bog'liq bo'lган masalalar hudud aholisi uchun eng dolzarb muammolar hisoblanganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan o'tgan 2022-yil mobaynida umumiy qiymati 2 119 619.4 ming so'mlik 8 ta loyiha jamoatchilik fikri asosida shakillantirilgan bo'lib, ovoz berish natijalariga ko'ra go'lib deb topilgan va moliyalashtirilgan. Bu ko'rsatkichlar 2023-yilga kelib umumiy qiymati 4 361 924.9 ming so'mlik 8 ta loyiha jamoatchilik fikri asosida shakillantirilgan bo'lib, ovoz berish natijalariga ko'ra go'lib deb topilgan va moliyalashtirilgan, bu esa o'tgan yilga qaraganda loyihalrning qiymati 2 baravarga oshganini ko'rsatadi.

Jamoatchilik fikri asosida shakillantirilgan loyihalashtirish uchun mablag'lar tuman budgetiga qonunchilikda belgilangan tartib asosidagi manbalar hisobidan shakillantiriladi. Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi mablag'lari mahalliy budgetning tasdiqlangan umumiy xarajatlarining 5 foizi, mahalliy budgetning yil boshiga erkin qoldiq mablag'lari va mahalliy budgetning orttirib bajarilgan daromadlarining 30 foizi hajmidagi mablag'lari asosida shakillanadi. Quyidagi keltirilgan jadvalda esa shbu turdag'i mablag'larning shakillanishini yillar kesimida choraklar va yillar kesimida ko'rishimiz mumkin.

### **3-jadval**

**Jizzax viloyati Yangiobod tumanida Fuqarolar tashabbusli  
jamg'armasi mablag'larning shakllanish manbalari (million so'mda)**

<b>Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi mablag'larini shakllantirish manbalari</b>	<b>2021-yil</b>	<b>2022-yil</b>	<b>2023-yil</b>
Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiy xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'lar	0	1432,021	6000

## ***Modern education and development***

Mahalliy budgetining yil boshiga shakllangan Erkin qoldiq mablag'lari	0	0	0	
Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lar	414	311	1168,592	
Shu jumladan	Erkin qoldiq mablag'lari	30	64	268
	Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi	384	247	1152
	Iqtisod qilingan mablag'lar		0	1325,004
	Respublika byudjetidan ajratilgan mablag'lar (PQ-5250 ga asosan)	1203	950	0
<b>Jami ajratiladigan mablag'lar</b>		<b>1617</b>	<b>2569,725</b>	<b>9913,596</b>

Yuqorida berilgan jadval so`ngi yillarda Jizzax viloyati Yangiobod tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasiga ajratilgan mablag'larning shakllanishi manbalarini yillar kesimida ko'rishimiz mumkin. Tuman mahalliy budgeti tasdiqlangan umumiylar xarajatlarning 5 foiz qismi miqdorida ajratilgan mabag'i 4 ta choraklar yakuni bo'yicha jami 2022-yilda 2603681 ming so'm ni tashkil etgan. 2023-yilda esa bu ko'rsatkich 6000000 ming so`mga yetib o'tgan yilgiga nisbatan 3396319 ming so`mga oshgan. Erkin qoldiq mablag'lari esa 2021-yilda 30000 ming so'mni bo'lib bu mablag'lar 2022-yilga kelib qariyb ikki barobardan oshib 64000 ming so'mni tashkil etgan, bu ko'rsatkich 2023 yilga kelib o'tgan yilga qaraganda to'rt baravaridan oshib 268000 ming so'mni tashkil etgan. Tuman mahalliy budgeti qo'shimcha manbalarning 30 fozi miqdorida ajratiladigan mablag'lari esa 4 ta choraklar yakuni bo'yicha jami 2021-yilda 414000 ming so'mni tashkil qilgan bo'lsa 2022-yil esa 311000 ming so'm bo'lgan, bu ko'rsatkich 2023 yilga kelib sezilarli darajada ko'tarilib 1168592.2 ming so'mni tashkil qilib o'tgan yilga qaraganda 533592.2 ming so'mga oshganini tahlil qilish natijasida o'rganib chiqdik. Daromadlarning hisobot choraklari yakunlari bo'yicha aniqlanadigan prognozdan oshirib bajarilgan qismi 2021-yilda 384000 ming so'm bo'lgan bo'lsa, 2022-yilda 247000 ming so'mni

## ***Modern education and development***

yashkil etgani holda o'tgan yilgiga nibatan 137000 ming so'mga kamaygan, 2023-yilga kelib esa 351000 ming so'mni tashkil etib o'tgan yilga qaraganda 2.7 baravarga oshganini ko'rib chiqdik. Iqtisod qilingan mablag`lar hisobidan Fuqarolar tashabbusli jamg'armasiga ajratilgan mablag`lar 2021-2022-yillardada mavjud bo'lмаган lekin 2023-yilda 4 ta choraklar yakuni bo'yicha jami 549592.11 ming so'mni tashkil etgan.

Yuqoridagi raqamlardan ko`rinib turubdiki Jizzax viloyati Yangiobod tumanida Fuqarolar tashabbusli jamg'armasi tomonidan tashabbusli budgetlashtirish natijasida amalga oshirilgan loyihalar uchun yetarlicha mablag`lar ajratilgan va g'olib loyihalar amalga oshirilgan hatto oxirgi yillarda iqtisod qilingan mablag'lar mavjud.

Quyida keltirilgan jadvalda tuman aholisi tomonidan hudud miqyosida eng dolzarb deb topilgan loyihalar, ularning qisqacha mazmuni va loyihaning g'olib bo'lishi uchun qancha ovoz to'plaganligi hamda ushbu g'olib loyihalarni moliyalashtirish uchun qancha mablag' sarflanganligini yillar kesimida hamda loyihalar kesimida ko'rib chiqishimiz mumkin.

### **4-jadval**

#### **Jizzax viloyati Yangiobod tumani tashabbusli budgetlashtirish**

#### **natijasida amalga oshirilhan loyihalar tarkibi**

T/r	Tadbirning qisqacha mazmuni (sohasi)	Jami to'plagan ovozlar soni	Shu jumladan			Moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag' miqdori (ming so'mda)
			onlayn ovozlar	oflaysn ovozlar	SMS orqali ovozlar	
<b>2021-yilda</b>						
1.	Jizzax viloyati Yangiobod tumani Balandchaqir MFYda Yangi hayot ko'chasida	110				70000.0

## ***Modern education and development***

---

	yashovchi fuqarolarni ichimlik suvi bilan ta'minlash 1 (bir) dona transformator, 15 (o'n besh) dona sim yog'och, 150 (bir yuz ellik) metr va elektr hisoblagich				
2.	Sovot QFYda To'qboy qishlog'i To'qboy ko'chasiga besh yuz metr tuproq yo'lga shag'al to'kish	3			43293.5
3.	Balandchaqir avtomobil yo'lni rekonstruksiya qilish va ta'mirlash	2			279862.5
4.	Xo'jamushkent QFY Feruz ko'chasidagi 500 metr yo'lga shag'al yotqizish	6			29954.6
5.	Shodlik MFY hududiga 300 metr shag'al yo'll qilib berish	3			17977.6
6.	Balanchaqir MFYda 100 metr markaziy ko'chani tamirlash	3			88095.4
7.	Shodlik MFYda joylashgan kutubxonani mebellar bilan jihozlash	7			50000.0
8.	Mustaqillikshox ko'chasida tungi yortish 50 dona lampa o'rnatish	3			55000.0
9.	Yangiobod tumani Sarmich MFY Iskandar qishlog'i hududiga 2000 metr ichimlik suv tarmog'i tortish	47			84000.0
10.	Yangiobod ShFY Mustaqillik ko'chasi axolisini ichimlik suvi bilan taminlash	107			13000.0

## ***Modern education and development***

	uchun 800 metr 90 lik politelin truba olish				
11.	Yangiobod ShFY Mustaqillik ko'chasida joylashgan Yangiobod ShFY binosini ta'mir talabligi sababli joriy ta'mirlash	155			61000.0
12.	Yangiobod tuman Sarmich MFY mamuriy binosini joriy tamirlash	40			69000.0
13.	Yangiobod tuman Sarmich MFY mamuriy binosini joriy tamirlash	3			137940.0
14.	Yangiobod tumani Do'stlik ko'chasi 45 ta ho'jalikni oqava suv bilan ta'minlash	4			250000.0
15.	Shodlik MFY Yuksalish ko'chasining 500 metr buzilgan qismiga asfalt qilish	3			100921.8
16.	Yangiobod ShFY Ziyokor ko'chasiga 200 metr asfalt yotqizish	4			120000.0
17.	Chimguzar ko'chasini 500 metr ichki yo'llarni tamirlash	3			29954.6
<b>18.</b>	<b>Jami</b>	<b>503</b>			<b>1500000.0</b>

**2022-yilda**

1.	Yangiobod tuman markazi bilan pastki Sarmich QFY ni bog'lovchi yo'lni ta'mirlash	1500	36		1464	1080000.0
2.	Yangiobod ShFY Bunyodkor ko'chasini asfalt qilish	803	223		580	541204.6

## ***Modern education and development***

3.	Yangiobod tuman markazi bilan pastki Sarmich QFY ni bog'lovchi yo'lni ta'mirlash	7015	0		7015	1200000.0
4.	Shodlik MFY Melobod qishlog'idan Puchugoy qishlog'idangi 2 - mактаб binosigacha bo'lgan yo'lni asfalt qilish	6391	0		6391	1200000.0
5.	<b>Jami</b>					<b>4021204.6</b>

**2023-yilda**

1.	Samich MFY hududidagi 13-maktab binosi oldidan Sarmich oilaviy shifokorlik punkti va Xojimatov Lochinbek xonadonining oldigacha bo'lgan yo'lni asfalt qilish	8224				1200000.0
2.	Yangiobod tuman Shodlik MFY hududida joylashgan 2- umumiy o'ra ta'lim maktabida yopiq turdag'i bolalar o'yingohi barpo etish	7305				1200000.0
3.	Yangiobod tuman kasb-hunar mактabi moddiy-texnika bazasini rivojlantirish maqsadida 40 dona shaxsiy kompyuterlar va boshqalar	3613				765000.0
4.	Yangiobod tumani Pastkichakir qishlog'i Dustlik MFY (Yangiquriq maxallasi)ga tabiiy gaz tarmog'iga ulash	757				100000.0
5.	Yangiobod tumani 5- maktab 1. Maktab hududini temir panjara bilan o'rash (zabor) 400 metr	4487				1190000.0

## ***Modern education and development***

---

	300000000 so'm 2. Maktab kirish qismiga temir darvoza 60000000 so'm. 3. Maktab kirish qismiga qorovulkxona qurush 6x5 2 ta xona pishgan g'ishtdan 150000000 so'm. 4. Maktab hududida zamonaviy oshxona qurish pishgan g'ishtdan jihozlari bilan 400000000 so'm. 5. Maktabga kirish qismidan beton yo'lak qilish 250 kvadrat metr 200000000 so'm. 6. Maktab hududining bir qismi beton latok o'rnatish 150 metr 80000000					
6.	Yangiobod tumani sport maktabidagi bo'sh hududda 30x45 hajmdagi usti yopiq, suniy qoplamai muxlislar uchun 80 o'rindiqli mini stadion xamda tungi yoritish chiroqlari o'rnatish	4147				1320000.0
7.	Yangiobod tumani Do'stlik MFY Pastkichaqir qishlog'i 8- maktab hududida zamonaviy turdag'i 1 dona 25x42 o'lchamdag'i suniy qoplamali usti yopiq fudbol maydoni qurish. Qishog'imiz yoshlarini bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish hamda sportning mini fudbol turini rivojlantirish	2314				1300000.0
8.	<b>Jami</b>					<b>7075000.0</b>

Jadvalda ko'rishimiz mumkunki Jizzax viloyatining Yangiobod tumanidagi tashabbusli byudjet loyihasiga berilgan ovozlarning offlays, onlayn va sms orqali nechta ovoz to'planganini ko'rishimiz mumkin.shu jumladan 2021 yilni jami ovozlar soni 503 donani tashkil etgan, 2022 –yilga kelib esa 15709 donani tashkil etib o'tgan yilga qaraganda 15206 donaga ko'payib, 2023-yilga kelib qarib ikki baravarga oshib, 30847 donaga yetgan. Bu loyihalarga jami ajratilgan mablag'larning umumiyligi miqdori 12.596 mlrd so'mni tashkil qilgan. Loyihalar uchun eng ko'p ovoz 8224 tani eng kami esa 2 tani tashkil qilganini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa o'rnilada shuni aytishimiz mumkinki, Tashabbusli byudjetlashtirishda yildan-yilga fuqarolarning ishtiroklari ortib bormoqda. Buning natijasi o'laroq mamlakatimizning ko'zga ko'rinxagan ijtimoiy sohalari fuqarolarimiz tomonidan muhokama qilinib, takliflar asosida o'z yechimini topmoqda. Bu esa mamlakatimizning byudjet mamlag'larini oqilona foydalanish imkonini bermoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:“Шарқ. 2010;804.
2. Malikov, T., and Haydarov NH. Byudjet. "O'quv qo 'llanma." Toshkent:“Iqtisod-moliya 84 (2008).
3. TS Malikov, O Olimjonov. Moliya. - O 'quv qo 'llanma. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2018
4. Malikov T, Haydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O'quv qo 'llanma, Toshkent:“IQTISOD-MOLIYA. 2007.
5. Маликов ТС. Ҳайдаров НҲ “Молия: умумдавлат молияси”. Ўқув қўлланма. 2009.
6. Malikov TS. Byudjet-soliq siyosati. T.:“Iqtisod-moliya. 2019.
7. Malikov, T. S., & Olimjonov, O. O. (2019). Moliya: Darslik.
8. Malikov T, Haydarov N. Budget: tizimi, tuzilmasi, jarayoni. O'quv qo'llanma, Toshkent “IQTISOD-MOLIYA. 2008.

9. Ўроқов У. Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари. Т. 2017
10. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишнинг устувор йўналишлари- Science and Education, 2022
11. У Ўроқов, Д Ускенбаева. Ўзбекистонда ташаббусли бюджетни жорий этишнинг ташкилий-хукуқий асослари - Science and Education, 2022
12. Ўроқов У, Иргашев И, Ғайбуллаев О. Фуқаролар иштирокидаги маҳаллий бюджет. 2022
13. UY O'roqov, JA Yomg'Irov. Mahalliy byudjetlar barqarorligini ta'minlash masalalari - Central Asian Research Journal for Interdisciplinary ..., 2022
14. Ўроқов УЮ. Маҳаллий бюджетлар шаффоғлиги ва очиқлигини таъминлашнинг устувор йўналишлари. Бизнес-Эксперт журнали. 2020;4.
15. Ўроқов У. Ғайбуллаев О. Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press. 2016.
16. Уроков У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишга оид назарий карашлар. Республика илмий-амалий конференция. ТМИ 2020.
17. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий барқарорлигини белгиловчи қўрсаткичлар. 2020
18. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромадларини шакллантиришнинг самарали йўллари. 2017
19. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар даромад базасини кенгайтириш масалалари. Республика ўқув юртлараро конференция тўплами. ТМИ-2009 йил (Vol. 18).
20. Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг замонавий муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари тўплами. ТМИ 2022 йил.
21. У Ўроқов. Маҳаллий бюджетлар молиявий мустақиллигини оширишнинг хукуқий асослари.- Science and Education, 2023

22. G‘aybullayev O, O‘roqov U. O‘zbekiston Respublikasida budget tizimi va jarayoni. O‘quv qo‘llanma. T.: Baktriapress. 2016;168.
23. Xaydarov N. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Akademiya. 2007.
24. Хайдаров НХ. Маҳаллий бюджетлар: муаммо ва инновацион ечимлар. Ўзбекистон статистика ахборотномаси” илмий электрон журнали. 2020.
25. Хайдаров Н. Доходы местных бюджетов и пути их укрепления.“Молия” илмий журнали. 2022.
26. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетларнинг даромад манбалари. халқаро илмий-амалий конференция 2022.
27. Хайдаров Н. Маҳаллий бюджетлар даромадини барқарорлаштириш йўллари. халқаро илмий-амалий конференция мақолалар тўплами (Vol. 2022